

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.Maxmutaliyev	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kuch jismoniy sifati va uni tarbiyalash uslublari.....	111
G.S.Sidiqova	
Hozirgi kun jismoniy madaniyat yo'riqchilarining klassifikasiyasi	118
X.X.Xaydaraliyev	
O'quv mashg'ulotlari davomida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillshatirish.....	123
R.A.Hamroqulov	
Salomatlik testi talab va me'yorlarini topshirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkillash	128
E.I.Allomov	
Maktab o'quvchilarini harakat faoliyatining yoshga xos me'yorlari	134
T.A.Eshimov	
Kasb - hunar maktablari o'quvchilarining jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari tahlili.....	141
Sh.M.Robilova	
O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligi	147
Q.M.Xakimov	
Yosh voleybolchilarda jismoniy ish qobiliyati va uning funksional komponentlarini shakllantirish masalalari.....	150
Sh.V.Djalalov	
O'rta yoshdagagi qizlarda egiluvchanlikni rivojlantirish metodikasi (5–9-sinflar) jismoniy tayyorgarlikning tabaqaqalashtirilgan tizim asosida.....	155
X.M.Sotvaldiyeva	
Ingliz tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish usullari	159
S.I.Quziyev	
Ingliz tilini o'qitishda smart ta'limgan texnologiyalari orqali virtual turizmni takomillashtirishning pedagogik usullari	162
N.K.Ergasheva	
Methodology and outcomes of english language teaching	168
M.Axmedova	
Maxsus yo'nalish talabalarining eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishda autentik materialarning roli.....	172
G.Astonova	
Germaniyada ta'limgan tizimini boshqarishning hududiy xususiyatlari.....	176
G.R.Astonova, M.M.Kaharova	
Germaniya va O'zbekiston ta'limgan tizimida o'xshash va farqli jihatlar	179
N.A.Abduvaliyeva, U.Sh.Abduvoxidova	
Nutq o'stirishning metodik usullari	183
M.S.Ro'ziboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bag'rikenglik dunyoqarashini tarbiyalash: nazariy va amaliy yondashuvlar	188
N.N.Nabiyeva	
Triz texnologiyasi vositasida ta'limgan oluvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish mazmun va mohiyati	193
D.I.Asqarova	
Oliy ta'limgan tizimidagi islohotlar yangicha yondashuvlar	197
D.T.Yuldasheva	
Maktabgacha yoshdagagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirishda neyropedagogikaning imkoniyatlari	202
Y.A.Mirzaboyev	
Nostandart masalalar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida matematik kompetentlikni rivojlantirish metodikasi	206
R.Sh.Sharofutdinova	
Ko'zi ojiz o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari	210



УО'К: 796.325: 378

YOSH VOLEYBOLCHILARDA JISMONIY ISH QOBILIYATI VA UNING FUNKSIONAL KOMPONENTLARINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

ВОПРОСИ ФОРМИРОВАНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ РАБОТОСПОСОБНОСТИ И ЕЕ ФУНКЦИОНАЛНЫХ КОМПОНЕНТОВ У ЮНЫХ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ

ISSUES OF FORMATION OF PHYSICAL PERFORMANCE AND ITS FUNCTIONAL COMPONENTS IN YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS

Xakimov Qobiljon Maxamadovich 
Farg'onan davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yosh voleybolchilarida jismoniy ish qobiliyati va uning funksional komponentlarini shakllantirish masalalari o'rganilan bo'lib, voleybol o'yinlarida 5 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan davrda jismoniy ish qobiliyati va uning funksional komponentlarini shakllantirishning ilmiy-amaliy tomonlari ko'rsatib berilgan. Ushbu davrni yosh bo'yicha guruxlarga ajratib, shu yosh guruhiiga mansub o'smir-voleybolchilarni olly sport mahoratini takomillashtirish guruhlariga yoki professional voleybol jamoalariga qabul qilish va o'yin funksiyalariga mo'ljal qilgan holda chuqurlashtirilgan ixtisoslik mashg'ulotlarida shug'ullanadirish o'rganilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы формирования физической работоспособности и ее функциональных компонентов у юных волейболистов, показаны научные и практические аспекты формирования физической работоспособности и ее функциональных компонентов в играх по волейболу от 5 до 16 лет. В этот период были разделены группы по возрасту и обучено заниматься углубленной специализированной подготовкой, направленной на прием подростков-волейболистов данной возрастной группы в группы совершенствования спортивного мастерства или профессиональных волейбольных команд и игровых функций.

Abstract

The article examines the issues of formation of physical performance and its functional components in young volleyball players, shows scientific and practical aspects of formation of physical performance and its functional components in volleyball games from 5 to 16 years. During this period, groups were divided by age and trained to engage in in-depth specialized training aimed at accepting adolescent volleyball players of this age group into groups for improving sports skills or professional volleyball teams and game functions.

Kalit so'zlar: voleybol, voleybol jamoalar, yosh voleybolchi, aeroblik, anaeroblik, qobiliyatni shakllantirish.

Key words: volleyball, volleyball teams, young volleyball player, aerobicity, anaerobicity, development of abilities.

Ключевые слова: волейбол, волейбольные команды, юный волейболист, аэробность, анаэробность, формирование способностей.

KIRISH

Sport zahiralarini tayyorlash amaliyotida u yoki bu jismoniy sifatlarni rivojlantirish, texnik-taktik harakatlarga o'rgatish, ularni shakllantirish va funksional imkoniyatlarni yuklamalar ta'siriga moslashtirish jarayonlari shug'ullanuvchilar yoshi, jinsi hamda tayyorgarlik darajasiga qarab amalga oshirilishi sport pedagogikasining o'ta muhim shartlaridan biridir.

Voleybolda 5-8 yoshgacha sog'lomlashtirish guruhlarida shug'ullanadirish, 9-11 yoshdan boshlab tayyorgarlik guruhlariga jaib qilish odat tusiga kirgan. 12-16 yoshgacha o'quv-mashg'ulot guruhlarida shug'ullanadirish, 15-16 yoshdan boshlab sport mahoratini takomillashtirish guruhiga o'tkazish BO'SMilar dasturidan joy olgan. Aynan shu yosh guruhiiga mansub o'smir-voleybolchilarni olly sport mahoratini takomillashtirish guruhlariga yoki professional voleybol jamoalariga qabul qilish va o'yin funksiyalari (amplua)ga mo'ljal qilgan holda chuqurlashtirilgan ixtisoslik mashg'ulotlarida shug'ullanadirish amalga kiritilgan.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR

Mavzu bo'yicha maxsus adabiyotlarni tahlili ko'rsatdiki, Yu.Jeleznyak (2005), Yu.R.Ayrapetyans (2005), A.V.Belyaev (2009), M.I.Popichev mualifligida maxsus adabiyotlar bor. Hozirgi kunda voleybol bo'yicha mashg'ulotlar olib borish metodikasiga oid o'zbek tilida darsliklar yetarli emas. Ba'zi adabiyotlarda umumiy tavsiflar va musobaqalarning rasmiy qoidalari L.R.Ayrapetyans (2004), voleybol nazariyasi va qoidalari (A.A.Po'latov, Sh.X.Istroilov, 2007) berib o'tilgan.

Shuningdek, yosh voleybolchilarda jismoniy ish qobiliyati va uning funksional komponentlarini shakllantirish masalalarini o'rganilish adabiyotlarda to'liq yoritilmagan bo'sada, qisman o'rganilgan. Jumladan, o'zbek olimlari Abdullaev A., Xonkeldiev Sh.X. Kodirova M.A., Maxmudova M.M.lar o'zlarining jismoniy tarbiyaga oid darsliklari, o'quv qo'llanma, uslubiy ko'rsatma va ma'ruzalarida mavzuga doir ma'lumotlarni o'rganishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

A.V.Belyaev turli yoshli voleybolchilarni quyidagicha guruhlashtirgan: 8-10 yosh – boshlang'ich tayyorgarlik guruhi; 10-12 va 12-14 yosh – o'quv-mashg'ulot guruhi; 14-16 va 16-18 yosh – sport takomillashuvi; 17-18 va undan katta yosh – oliy sport mahoratini takomillashtirish guruhi.

Ammo BO'SMlarga mo'ljallangan bunday dasturlar rasman joriy etilgan bo'sada, bolalarni yosh bo'yicha guruhlashtirish pasport yoshi bo'yicha amalga oshirilsada, aslida bu masalada aksariyat biologik yosh e'tiborga olinadi. Demak, 15-16 yoshdan boshlab iqtidorli voleybolchilar uchun professional voleybolga tanlov o'tkazish sinov ko'prigi vazifasini o'taydi. Ammo sport mahoratini takomillashtirish guruhlarida yoki professional voleybol jamoalarida shug'ullanuvchi o'smirlarda ish qobiliyatining jismoniy va funksional komponentlari, ayniqsa tezkorlik-kuch chidamkorligi, sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini rivojlantirishda bolalarning real imkoniyatlarini nazarda tutish asosida yuklamalar hajmi va shiddatini tabaqalashtirilgan (yoki me'yorashtirilgan) holda qo'llash muhim ahamiyatga egadir. [1,2,3,4,5]

Ma'lumki, "chidamkorlik" keng qamrovli integral tushuncha bo'lib, o'z tarkibiga tezkorlik-kuch, sakrash, koordinasion qobiliyat (chaqqonlik) va egiluvchanlik sifatlarini biriktiradi. Chidamkorlik atamasining ma'nosi – bu uzoq muddat davomida ish faolligini tushirmsandan va toliqishni engib faoliyat ko'rsatish qobiliyatini anglatadi.

Chidamkorlikning darajasi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- organizmning funksional imkoniyatlari;
- funksional organlarning O₂ iste'mol qilish imkoniyati;
- yurak faoliyatining funksional imkoniyati;
- qon-tomir faoliyatining funksional imkoniyati;
- mushaklarni uzoq muddatli aerob va anaerob ish faoliyatiga moslashishi yoki gipoksis turg'unlik;
- organizmdagi energetik zahiralar hajmining ortishi;
- texnik mahoratni shakllanishi;
- irodaviy imkoniyat.

Ko'p yillik sport trenirovksi jarayonida voleybol bo'yicha sport zahiralarini professional voleybolga mo'ljal qilish doirasida tayyorlash bosqichma-bosqich didaktik prinsiplarga asoslangan holda yuklamalar hajmi va shiddatini "to'lqinsimon" tartibda oshirib borilishi darkor. Bolalar 15-16 yoshga etganda ular jismoniy, texnik-taktik va psixofunksional jihatlaridan shu yosh guruhlariga mo'ljallangan me'yoriy talablar va model ko'rsatkichlar darajasida etilgan bo'lmog'i lozim.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, voleybol bo'yicha sport zahiralarini tayyorlashga mo'ljallangan o'quv-mashg'ulot dasturida barcha tayyorgarlik turlari (jismoniy, texnik-taktik) uchun ajratilgan yuklamalar hajmi boshlang'ich tayyorgarlik guruhiga 312-416 soat (3 yil), o'quv-mashg'ulot guruhiga 1040 soat (5 yil), sport takomillashuvi guruhiga 1456 soat (3 yil) va oliy sport mahoratini takomillashtirish guruhi uchun 1664 soat deb belgilangan. Aynan 15-16 yoshli o'smir voleybolchilarning yillik yuklamalari 1040 soat hajmida ifodalangan. Demak, ana shu yuklamalar hajmi 15-16 yoshli voleybolchilar sport takomillashuvi guruhi (yuklamalar hajmi 1248-1456 soat)ga jalg qilinganda yuklamalar 208-416 soatga, oliy sport mahoratini takomillashtirish guruhiga yoki professional jamoaga jalg qilinganda yuklamalar hajmi yana 624 soatga ortadi.

Qayd etilgan yuklamalar hajmidan ko'riniib turibdiki, yosh voleybolchilarni professional jamoalarga tayyorlashda jismoniy sifatlarni maqsadli rivojlantirish va texnik-taktik mahoratni shakllantirish bilan bir qatorda ularning psixofunksional imkoniyatlarini samarali sayqal topishiga urg'u berish muhimdir. Lekin ushbu yo'nalishda chop etilgan manbalarda jismoniy sifatlar yoki ish qobiliyatining jismoniy va funksional komponentlarini integral asosda shakllantirish masalalariga bag'ishlangan fikr-mulohazalar yoki tadqiqot natijalari o'ta chegaralangan. Mazkur muammo ayrim sport o'yinlari (futbol, basketbol, gandbol)da aynan sport rezervlarini tayyorlashda funksional imkoniyatlar jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligini oshirishda poydevor vositasi sifatida tadqiqotlar ostiga olingan [6, 7, 8, 9].

Voleybolchilar tayyorlash doirasida esa bunday mavzularga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lami o'ta chegaralangan [10].

M.I.Popichev o'z tadqiqotlari natijalariga asosan yosh voleybolchilarda sakrovchanlikni rivojlantiruvchi mashqlarni qo'llash uchun ularning tana bo'g'imlarini uzunligiga qarab to'rt guruhga ajratish lozimligini ta'kidlaydi:

- 1 – qisqaboldirlar, uzun son va gavdali bolalar;
- 2 – uzun son, gavdali va qisqa boldirlar;
- 3 – uzun boldirlar va qisqa sonli bolalar;
- 4 – kalta son, uzun gavdali va uzun sonli bolalar.

Ana shu morfologik xususiyatlarni e'tiborga olgan holda sakrovchanlik mashqlarini qo'llash muallifning e'tirof etishicha, 1-chi guruhga mansub bolalarda progressiv natija berar ekan. Ularda ma'lum vaqt o'tgandan so'ng sakrash balandligi, depsinish kuchi o'sgan, vaqt esa qisqargan. Bir qator mualliflarning fikriga ko'ra, yosh voleybolchilarda kuch turlarini rivojlantirishda o'zin yuklamalari qaysi texnik usulni ijro etuvchi "mushaklar" guruhini e'tiborga olish zarurligini bilmog muhim ekan. Ular 8 ta ijrochi organlar mushaklarini ko'rsatib o'tganlar: 1) bilaklarni bukuvchi; 2) tirsaklarni yozuvchi; 3) elkalarni yozuvchi; 4) gavdani bukuvchiya; 5) gavdani yozuvchi; 6) sonlarni yozuvchi; 7) boldirlarni yozuvchi; 8) oyoq panjalarini bukuvchi. Bu borada mualliflar kuch turlari rivojlantirishning sensitiv davrlarini e'tiborga olishni tavsiya etadilar: bilaklarni bukuvchi mushaklarni rivojlantirish 11-12 yoshda, tirsaklarni yozuvchi mushaklar – 12 va 14-15 yoshda, gavdani bukuvchi – 11-12 va 14 yoshda, gavdani yozuvchi – 11 va 13-15 yoshda, oyoq panjalarini bukuvchi – 11 va 14-16 yoshda deb fikr bildirilgan. [4, 9]

A.V.Suxanov, E.V.Fomin, L.V.Bulikinalarning fikrlariga muvofiq voleybolchilar tayyorlash amaliyotida sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini rivojlantirishda har bir bo'g'iming sakrash harakatida ishtirot etish ulushi e'tiborga olinishi muhim ekan (1-jadval).

E.K.Axmerovning fikriga qaraganda, voleybolchilarning ko'p yillik o'quv-mashq'ulot jarayonida shug'ullanuvchilarning yoshi va jismoniy imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda mashqlarni qo'llash muhim ahamiyatga loyiq ekan. U ayniqsa kuchni rivojlantiruvchi mashqlarni qo'llashda, birinchidan, shu mashqlarning voleybolga xos texnik-taktik usullarga moslashtirish lozimligini, ikkinchidan, qo'llaniladigan mashqlar oraliqlarida ish qobiliyatini tiklovchi vositalardan unumli foydalanish, uchinchidan esa, mashqlar mazmuni, yo'nalishi va ixtisosligi yillik tayyorgarlik siklariaga mos bo'lishi zarur ekanligini ta'kidlaydi.

1-jadval

Voleybolchilarga xos sakrash harakatida bo'g'imlarning ishtirot etish ulushi

T/r	Tana bo'g'imlari	Tana bo'g'imlarining sakrash harakatida ishtirot etish ulushi (%)
1	Oyoq panjalarini bukuvchi mushaklar	22
2	Tizzalarni yozuvchi mushaklar	56
3	Gavdani yozuvchi mushaklar	10
4	Boshni ko'taruvchi bo'yin mushaklari	2
5	Qo'llarni faol harakatga keltiruvchi mushaklar	10

Italiyalik mutaxassislar C.Pittera, P.Pedata, P.Pasqualonilar 11-14 yoshli voleybolchilar bilan mashq'ulotlar o'tkazish jarayonida jismoniy sifatlarni rivojlantirish va texnik-taktik harakatlar (usullar)ga o'rgatishga mo'ljallangan mashqlarni qo'llashda bolalarning psixofiziologik xususiyatlari

PEDACOGIKA

hamda ularning morfologik imkoniyatlari e'tiborga olinishi progressiv natijalarga olib kelishi e'tirof etiladi. [11]

Voleybolchilarda yil davomida jismoniy tayyorgarlikni rivojlantiruvchi mashqlarni qo'llash nafaqat tayyorgarlik sikllarida rejalashtirilgan mashg'ulotlar maqsadi va musobaqalar xususiyatiga moslashtirilishi zarur ekan, balki turli o'yin funksiyalariga ixtisoslashgan (amplua) o'yinchilar uchun ustuvor bo'lgan jismoniy qobiliyatlarga asoslanishi ham kerak ekan. Jumladan, to'p uzatuvchilar uchun tezkorlik qobiliyati – 94,6%, tezkorlikka bo'lgan chidamkorlik – 83,8%, sakrovchanlik – 59,5%, hujumchilar uchun sakrovchanlik – 91,9%, sakrash chidamkorligi – 86,5%, zarba vaqtida qo'lning tezkor harakati – 81,1%, libero uchun tezkorlik – 97,3% ga teng bo'lishi mutaxassislar fikrlari bilan isbotlangan. Muallifning tadqiqotlarida shu narsa aniqlandi, voleybolda etakchi jismoniy sifatlari ulushi turlicha ballarga ega ekan. Masalan, birinchi o'rinda tezkorlik-kuch sifatlari – 6,5 ball, ikkinchi – tezkorlik – 6,2 ball, uchinchi – chidamkorlik – 5,9 ball, kuch qobiliyatlari – 5,8 ball. Bunday ma'lumotlarga asoslanish zarurligini u shunday omillar bilan isbotlaydiki, musobaqa davri yakunlashgan sari o'yinchilarda, ayniqsa hujumchi va to'p uzatuvchilarda ana shu asosiy jismoniy qibiliyatlar sekin-asta sustlashib borar ekan. Chunonchi, ularda kuch qobiliyatlari 18,9%, tezkorlik – 21,0%, tezkorlik-kuch – 22,2%, chidamkorlik – 22,0% gacha tushib ketishi aniqlangan. Liberoda esa joyda uchkarra sakrash – 18,1%, tezkorlik – 23,0%, joydan vertikal sakrash – 24,1%, tezkorlik chidamkorligi – 19,4%gacha sustlashishi mumkin ekan. Shunga o'xshash fikr-mulohazalar V.Yu.Zubkov (2000) tomonidan ham ma'qullangan. Bundan tashqari ana shu muallifning e'tirof etishicha, tayyorgarlik davrining birinchi bosqichida – tezkorlik-kuch sifatlari, tezkorlik va chaqqonlik, ikkinchi bosqichda – tezkorlik-kuch, sakrovchanlik, chavvonlik va sakrash chidamkorligi; uchinchi bosqichda – tezkorlik, sakrovchanlik, chaqqonlik va tezkorlik chidamkorligi. Musobaqa davrida esa birinchi oraliq bosqichida – tezkorlik, sakrash chidamkorligi va chaqqonlik, ikkinchi bosqichda – tezkorlik-kuch, tezkorlik, uchinchi bosqichda – tezkorlik, sakrash chidamkorligi, to'rtinchi bosqichda – tezkorlik-kuch, tezkorlik va maxsus sakrovchanlikni rivojlantirish maqsadga muvofiq ekan.

A.P. Grigorev va b.larning tavsiyalariga ko'ra, voleybolchilarni tayyorlash jarayonida jismoniy sifatlarni rivojlantirish va texnik-taktik harakatlarni shakllantirish bilan bir qatorda murakkab harakat reaksiyalarini, ayniqsa harakatlanayotgan to'pga reaksiya ko'rsatish qobiliyatini ixtisoslashtirilgan mashqlar yordamida sayqal toptirishga urg'u berish muhim ahamiyat kasb etar ekan.

Tayyorgarlik jarayonining qaysi davri yoki qaysi bosqichi bo'lishidan qat'i nazar, o'yin sport turlarida har bir texnik usul ijrosini ta'minlovchi kuch sifatlarini shakllantirib borish va o'z vaqtida ushu kuch turlarini tiklab borish mashg'ulot hamda musobaqa samaradorligini saqlash imkoniyatini yaratadi. Chunki, muallifning asosli ta'kidlashicha, kuch sifatlari susaygan saridepsinish, sakrash, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik va hatto egiluvchanlik sifatlari ham zaiflashib, maxsus ish qobiliyatining sur'ati tushib ketar ekan. Bunday oqibatning oldini olish uchun, shu jumladan mashg'ulot va musobaqa samaradorligini tushirmslik uchun ham tayyorgarlik jarayonining barcha bosqichlarida funksional tayyorgarlik va ish qobiliyatini tiklash vositalarini qo'llab borishga urg'u berish zarur ekan [10].

XULOSA

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar va fikr-mulohazalar tahlilidan ko'rinib turibdiki, yosh voleybolchilarni tayyorlash, ayniqsa professional voleybol "ostonasida" turgan 15-16 yoshli voleybolchilar bilan mashg'ulot o'tkazish, ularning jismoniy va funksional imkoniyatlari, boshqacha qilib aytganda umumiy va maxsus jismoniy ish qobiliyatini shakllantirishda yillik tayyorgarlik sikllarining o'ziga xos xususiyatlariga rioya qilishni talab qiladi. Bu borada shug'ullanuvchi bolalarda ob'ektiv natijalar beruvchi testlar o'tkazish orqali ularning real imkoniyatlarini bilish va mashqlarni qo'llashda ana shu imkoniyatlarga asoslanish olib borilayotgan pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Беляев А.Б., Савин М.В. Волейбол. Учебник для ст-в вузов физ-ры. М.: ТВТ. Дивизион, 2009.-359 с.
- Матвеев Л.П. Общая теория спорта и ее прикладные аспекты: 4-е изд., испр. и доп. / Л.П. Матвеев. – Санкт-Петербург: "Лань", 2005. – 384 с.
- Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта. Учебное пособие. М.: Академия, 2008. – 478 с.
- Беляев А.В. Волейбол на уроке физической культуры. Учеб.-метод.пособие / А.В.Беляев.-2-е изд.-М.: ФиС: Спорт Академ Пресс, 2005. - 143 с.

5. Булыкина Л.В., Ананыин А.С. Выявление ведущих физических качеств волейболистов. №1, 2018, С.61-62.
6. Aygarapetyans L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. - T.: Fan va texnologiya, 2012. - 208 b.
7. Пўлатов А.А., Исройлов Ш.Х.. Волейбол назарияси ва услубияти. Тошкент – 2007 й. -148 с.
8. Пулатов А.А., Кодирова М.А. Sport pedagogik mahoratini oshirish (voleybol)/ Ўқув кўлланма. Т.: 2018. – 242 б.
9. Денисенко Ю.П., Гумеров Р.А., Морозов А.И. Повышение специальной физической работоспособности спортсменов посредством применения релаксационных упражнений. // Теория и практика физической культуры. №9, 2018, С.69-71.
10. Титова Т.М. Волейбол: Развитие физ. качеств и двигат. навыков в игре/ Т.М. Титова, Т.В. Степанова. - М.: Чистыэ пруды, 2006. - 32 с.
11. Шнайдер В.Ю. Методика обучения игре в волейбол / Пособие для студентов факультетов физ-ры. "Человек Олимпия", М. 2008, 56 с.